

HY272 Istanbul - Toshkent aviaqatnovi havo kemasidagi hodisa

2025 18 Iyun

“Uzbekistan Airways” AJ 2025-yil 16-iyun kuni Istanbul – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha HY272 aviaqatnovi amalga oshirayotgan havo kemasida sodir boʻlgan voqea haqida maʼlum qiladi.

Parvoz paytida yoʻlovchilardan biri baland ovozda turmush oʻrtogʻi bilan munosabatlarini oydinlashtirishni boshlagan, bu esa havo kemasi bortidagi jamoat tartibini buzgan. Boshqa yoʻlovchilar va ekipaj aʼzolarining nomaqbul xatti-harakatlarni toʻxtatishni bir necha bor soʻrashlariga qaramay, fuqaro oʻzini tajovuzkorona tutishda davom etgan, jumladan, boshqa yoʻlovchilar bilan janjallashib qolgan.

Ushbu harakatlar fuqaro havo kemasida oʻrnatilgan xulq-atvor meʼyorlariga zid boʻlgan parvoz tartibi va qulayligini buzish xavfini tugʻdirdi.

Toshkent shahar xalqaro aeroportiga qoʻngandan soʻng, tartibni buzgan ayol, amaldagi qonunchilikka muvofiq keyingi tergov-surishtiruv ishlari uchun Toshkent shahar xalqaro aeroportlarida xavfsizlikni taʼminlash boshqarmasi xodimlariga topshirildi.

“Uzbekistan Airways” AJ barcha yoʻlovchilarning xavfsizligi va qulayligini taʼminlash bizning ustuvor vazifamiz ekanligini eslatib oʻtadi. Biz barcha yoʻlovchilarni havo kemasida oʻzini tutish qoidalariga rioya qilishga va bir-birlariga hurmat bilan munosabatda boʻlishga chaqiramiz.

Tushunganingiz uchun rahmat.